



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19497640>

Yuqori malakali futbolchilarni tayyorgarligida kompleks nazoratning pedagogik jihatlari

Jaxbarov Abulfayzxon Sobirxon o'g'li –

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislar qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati kafedrasida dotsenti

E-mail: abulfayzjahbarov787@gmail.uz

ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-3734-5879>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yuqori malakali futbolchilarni tayyorlashda kompleks nazoratning pedagogik jihatlari, vositalari va zamonaviy texnologiyalar asosidagi monitoring usullarining o'zni tahlil qilinadi. Futbolchilarning tayyorgarlik darajasini har tomonlama baholash uchun real o'yin statistikasi, texnik-taktik harakatlar, zonal faollik, to'pni yo'qotish va qayta egallash ko'rsatkichlari, hamda to'pga egalik qilish davomiyligi kabi ko'rsatkichlar asosida monitoring amalga oshirilgan. Tadqiqot doirasida 2024-yilgi O'zbekiston Super Ligasining 14 ta jamoasi ishtirokida Wyscout tizimi orqali yig'ilgan raqamli ma'lumotlar asosida statistik, texnik-taktik va metodik yondashuvlar asosida kompleks nazorat modellarining samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kompleks nazorat, yuqori malakali futbolchilar, pedagogik monitoring, texnik-taktik faoliyat, Wyscout, zonal tahlil, pressing samaradorligi, to'pni egallab olish, to'pni yo'qotish zonasi, futbolchilar tayyorgarligi, taktik sxemalar, tranzitsion o'yin, ko'rsatkichlar.

Педагогические аспекты комплексного контроля в подготовке высококвалифицированных футболистов

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические аспекты, средства и роль современных технологий мониторинга в системе комплексного контроля при подготовке высококвалифицированных футболистов. Для всесторонней оценки уровня подготовленности игроков мониторинг осуществляется на основе таких показателей, как реальная игровая статистика, технико-

тактические действия, зональная активность, показатели потери и возврата мяча, а также продолжительность владения мячом. В рамках исследования на основе цифровых данных, собранных с использованием системы Wyscout при участии 14 команд Суперлиги Узбекистана 2024 года, проведён анализ эффективности моделей комплексного контроля с применением статистического, технико-тактического и методического подходов.

***Ключевые слова:** комплексный контроль, высококвалифицированные футболисты, педагогический мониторинг, технико-тактическая деятельность, Wyscout, зональный анализ, эффективность прессинга, отбор мяча, зоны потери мяча, подготовка футболистов, тактические схемы, переходная игра, показатели.*

Pedagogical aspects of comprehensive control in the training of highly qualified football players

***Annotation.** This article examines the pedagogical aspects, tools, and the role of modern technology-based monitoring methods in the system of comprehensive control in the training of highly qualified football players. To ensure a comprehensive assessment of players' preparedness, monitoring was conducted based on indicators such as real match statistics, technical and tactical actions, zonal activity, ball loss and recovery metrics, as well as ball possession duration. Within the framework of the study, based on digital data collected through the Wyscout system involving 14 teams of the Uzbekistan Super League in 2024, the effectiveness of comprehensive control models was analyzed using statistical, technical-tactical, and methodological approaches.*

***Keywords:** comprehensive control, highly qualified football players, pedagogical monitoring, technical and tactical activity, Wyscout, zonal analysis, pressing efficiency, ball recovery, ball loss zones, player training, tactical formations, transitional play, performance indicators.*

KIRISH

Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlash murakkab, ko'p bosqichli, tizimli yondashuvga asoslangan pedagogik jarayondir. Hozirgi zamonaviy futbolda individual mahorat, jismoniy tayyorgarlik va taktik intellekt bilan bir qatorda – kompleks pedagogik nazorat o'quv-mashg'ulot jarayonining ajralmas bo'g'iniga aylanmoqda. Bu nazorat nafaqat sportchi holatini baholash, balki tayyorgarlikning optimal modelini shakllantirish, yondashuvlarni diferensiallashtirish va o'yin samaradorligini prognoz qilish imkonini beradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Super Ligasida kuzatilgan tendensiyalar – xususan, Wyscout tizimi orqali yig'ilgan statistik ko'rsatkichlar to'pga egalik qilish darajasi, to'p olib qo'yish, uzatmalar va ularning sifati, qanot orqali hujumlar, pressingdagi faollik va tranzitsion bosim – futbolchilarning tayyorgarligida monitoringning murakkabligini ochib bermoqda. Masalan, Olimpik va Nasaf jamoalarining pas aniqligi va to'pga egalik davomiyligi ularning yuqori o'yin intellektiga ega tizimli futbolchilarga ega ekanligini

bildirsa, Andijon va Qizilqum kabi jamoalarning tranzitsion o'yinida¹ ko'proq interception² va o'z zonasida to'p yo'qotish holatlari kuzatiladi. Bu holatlar futbolchilarning jismoniy, texnik va psixologik tayyorgarligini nafaqat mashg'ulot orqali, balki kompleks diagnostika va pedagogik nazorat asosida yuritilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Shu boisdan, ushbu ilmiy maqolada yuqori malakali futbolchilarning tayyorgarlik jarayonida kompleks nazoratning o'rni, vositalari, pedagogik jihatlari va amaliy natijalarga ta'siri yoritiladi. Tahlillar real statistik ma'lumotlar, tajribaviy kuzatuvlar va ilg'or metodik yondashuvlarga tayangan holda olib boriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun mashg'ulotlarni maqsadli va rejali ravishda o'tkazish zarurligini ta'kidlaydi. "mashg'ulot jarayonini davrlash orqali sportchilar o'zlarining maksimal jismoniy imkoniyatlariga erishishlari mumkin"[2; 3; 8].

To'p bilan ishlash ko'nikmalari futbolchilarning umumiy o'yindagi samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Futbolchilarni texnik jihatdan tayyorlash uchun tizimli va muntazam mashg'ulotlar o'tkazilishi kerak[1; 4; 5].

Futbol o'yinini tahlil qilishda ma'lumotlar tahlili va pozitsion ma'lumotlarni yig'ish, model qilish va tahlil qilishning ahamiyatini ta'kidlaydilar. Ular futbolchilarning joylashuv ma'lumotlarini tahlil qilish orqali jamoa o'yin uslublarini va taktikasini yaxshilash imkoniyatlarini ko'rsatadilar. Mualliflar, shuningdek, ma'lumotlar tahlili texnikasini futbol tahlilida qo'llash orqali yangi imkoniyatlar ochilishini ta'kidlaydi[6; 7; 9].

Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlashda kompleks nazoratni amalga oshirish – bu murakkab, ko'p qirrali, pedagogik va ilmiy yondashuvga asoslangan faSuperatdir. Nazorat jarayonining asosiy vazifasi sportchining tayyorgarlik jarayonini uzluksiz baholash, har bir komponent bo'yicha rivojlanish dinamikasini aniqlash, mashg'ulotlarni diferensiallashtirish va optimal yuklama mexanizmini shakllantirishdan iboratdir. So'nggi yillarda mazkur masala bo'yicha olib borilgan fundamental tadqiqotlar [Verkhoshanskiy, Platonov] futbolchilarning tayyorgarligini baholashda kompleks indikatorlar tizimini ishlab chiqishga asos bo'ldi.

Xususan, Platonov [2004] sportchining har tomonlama tayyorgarligini baholashda quyidagi 4 asosiy blokni ajratadi: jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlik. Bu komponentlarning har biri faqat testlar orqali emas, balki amaliy o'yin faSuperati orqali monitoring qilish zarurligi ta'kidlanadi. Bugungi kunda bu yondashuv "real o'yin sharoitida monitoring" deb nomlanadi va zamonaviy texnologiyalar bilan uzviy bog'liq.

Kompleks nazorat –o'yin statistikasi, yurak urish chastotasi (YuQCH), texnik-taktik xatti-harakatlar, to'pni yo'qotish zonasi, pressing samaradorligi, pas aniqligi kabi ko'rsatkichlarning tizimli tahlilidir [Verkhoshanskiy, 1990]

Monitoringda katta tezlikli video-tahlil, traking tizimlari (Catapult, GPS, Wyscout), analitik platformalar (InStat, Hudl, Wyscout) sportchilar faSuperatini raqamli o'lchashda asosiy vositaga aylangan.

Ushbu tadqiqot doirasida O'zbekiston Super Ligasida ishtirok etayotgan jamoalarning 2024-yilgi mavsumdagi statistikasi asosida kompleks pedagogik nazorat

¹ hujumdan himoyaga yoki himoyadan hujumga o'tish jarayonini anglatadi. Bu o'yinning eng tez va murakkab bosqichi bo'lib, futbolchilar va jamoa harakatlarining qanday tezlikda va qanday sifatda o'zgarishini ifodalaydi.

² raqibning uzatmasini yo'ldan to'sib, to'pni egallab olish holatidir. Bu himoyaviy harakatlar turiga kiradi va raqib hujumining uzilishiga, to'p egasining almashishiga sabab bo'ladi.

faSuperatining modellari tahlil qilindi. Wyscout tizimi orqali yig'ilgan ma'lumotlar asosida quyidagi metodik yondashuvlar qo'llanildi:

Statistik monitoring (empirik kuzatuv). Uzatmalar (paslar) tahlili: Olimpik jamoasi o'rtacha 409.88 pas/o'yin amalga oshirgan bo'lib, bu eng yuqori ko'rsatkichdir. Nasaf (386.17) va Navbahor (381.82) ko'rsatkichlari esa ularning kombinatsion o'yin strategiyasini tasdiqlaydi. Bu ko'rsatkichlar futbolchilarning qaror qabul qilish tezligi, texnik barqarorligi va pressingga qarshi chidamliligini baholashga xizmat qildi.

Zonal texnik-taktik tahlil. To'pni yo'qotish zonasini: Nasaf jamoasi to'pni hujum zonalarda (41.59%) yo'qotgan bo'lsa, bu qarshi pressingni tez ishga tushiruvchi taktikani bildiradi. Aksincha, Andijon jamoasida to'pni himoya zonasida yo'qotish (37%) yuqori, bu esa nazoratning zaifligini ko'rsatadi.

To'pni o'qib olish va to'pni qayta egallash harakat faSuperati (himoyaviy nazorat). Metallurg jamoasi har o'yinda o'rtacha 83.64 marta to'pni to'sib olish harakati bajargan bo'lib, bu intensiv pressing strategiyasining samarasi.

Nasaf va AGMK esa markaziy zonada yuqori to'pni to'sib olish harakat ko'rsatkichiga ega bo'lib, bu o'yinchilarning texnik-taktik holatini baholashda muhim ko'rsatkich sifatida qo'llandi.

To'pga egalik qilish davomiyligi orqali pedagogik barqarorlik tahlili. Olimpik – to'pga egalik darajasi 56.9%, egalik o'rtacha davomiyligi 16.1 soniya bo'lib, futbolchilarning pressing ostida to'pni saqlab qolish qobiliyati yuqoriligini bildiradi. Aksincha, Andijon – egalik davomiyligi faqat 10.1 soniya, bu texnik xatolar va o'yin intellekti bo'yicha muammolarga ishora qiladi.

Differensial yondashuv (jamoaviy darajaga qarab baholash). Yuqori o'rinlardagi jamoalar (Nasaf, Olimpik, Navbahor) va pastki pog'onadagi jamoalar (Andijon, Qizilqum) orasida texnik-taktik monitoring natijalari solishtirildi.

Bu usul orqali har bir jamoaning tayyorgarlik darajasini raqamli tahlil qilish imkoni yaratildi.

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, yuqori malakali futbolchilarni tayyorlashda kompleks nazoratni amalga oshirish uchun real vaqt rejimida o'yin statistikasi, zonal faollik va texnik barqarorlik asosida baholash eng maqbul yondashuvdir. Wyscout tizimi orqali olingan ma'lumotlar pedagogik monitoringni raqamlashtirishga, individual tayyorgarlikni modellashtirishga va mashg'ulot yuklamasini ilmiy asosda tuzishga imkon beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Zamonaviy futbolda jamoaning taktik sxemasi (joylashuvi) o'yin uslubini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Super Ligasining 2024-yilgi mavsumida Wyscout tizimi orqali olingan ma'lumotlar asosida olib borilgan tahlil jamoalarning joylashuv strukturalarida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Tadqiqotda 14 ta professional klubning o'yin davomida eng ko'p foydalanilgan 3 ta asosiy sxemasi o'rganildi.

Jamoaning taktik joylashuvi – bu faqat raqamlar yig'indisi emas, balki jamoaviy harakatning strukturaviy modeli, o'yin uslubining namoyoni, murabbiylik falsafasining ko'zgasidir. 2024-yilgi O'zbekiston Super Ligasining Wyscout statistik platformasi asosida olib borilgan tizimli tahlil shuni ko'rsatadiki, jamoalar zamonaviy futbolning universal tendensiyalariga tobora yaqinlashmoqda. Bunda moslashuvchanlik, bosim ostida qaror qabul qilish tezligi va hududlararo muvozanat asosiy tamoyillarga aylangan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, jamoalar ichida eng ko'p ishlatilgan sxema 4-2-3-1 bo'lib, u 14 jamoaning 11 tasida asosiy yoki ikkinchi variant sifatida qo'llangan. Bu sxema pressingga qarshi chidamli

bo'lish, markaziy ustunlikni yaratish va "oralik zonalarda" o'yinchilarni ko'paytirish imkonini beradi. Ayniqsa, Navbahor (71.9%) va FK Surxon (47.1%) bu sxemani doimiy asosda qo'llab, u orqali himoya-hujum o'rtasidagi tranzitsiyani soddalashtirishga erishgan. Bu holat "vertikal o'yin" va chiziqlarning zichligi tamoyillariga asoslanadi. Ayni paytda, Neftchi Farg'ona, Metallurg Bekobod va Lokomotiv Toshkent singari jamoalar 3 yoki 5 himoyachili sxemalar orqali o'yin tashkil etmoqda. Bu sxemalar, odatda, raqib hujumini to'xtatishda ko'p sonli markaziy himoyachilar va qanotdagi chiziq o'yinchilari orqali joyni yopish imkonini beradi. Neftchi Farg'ona 54.8% holatlarda 5-3-2 sxemasini qo'llagan bo'lib, bu murabbiylik falsafasining himoyaviy barqarorlik va to'pni tezda egallab olishga yo'naltirilganligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, Paxtakor va Nasaf kabi texnik-taktik tayyorgarligi yuqori bo'lgan klublar moslashuvchan sxema almashuvi orqali o'yinga dinamik yondashuvni joriy qilmoqda. Nasaf jamoasi 3 ta turlicha sxemadan (4-2-3-1, 4-2-1-3, 4-3-3) foydalanib, o'z o'yin strategiyasini raqibga qarab modellashtirishga intiladi. Bu holat pozitsion o'yin nazariyasi, ya'ni zonal joylashuv va "yolg'on to'qqizinchi raqam" taktikalarining murakkab integratsiyasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Liga jamoalarining eng ko'p foydalangan sxema ko'rsatkichlari. (1-jadval)

1-jadval

**Super-liga jamoalarning asosiy o'yin sxemalari
 (% ishlatilish chastotasi bo'yicha) n=12**

Jamoa	1-sxema	(%)	2-sxema	(%)	3-sxema	(%)
Neftchi Farg'ona	5-3-2	54.8%	3-5-2	39.7%	5-3-1	5.5%
Paxtakor	4-4-2	22.1%	5-4-1	18%	4-2-3-1	14.1%
Nasaf	4-2-3-1	23.7%	4-2-1-3	23.3%	4-3-3	18.9%
FK Qizilqum	4-2-3-1	42.5%	4-4-2	18.5%	4-3-3	14.1%
Navbahor	4-2-3-1	71.9%	4-4-2	22.4%	4-2-1-3	3.8%
Dinamo Samarqand	4-1-4-1	56.4%	4-3-3	19.4%	4-4-2	13.8%
Lokomotiv Toshkent	5-4-1	34.8%	5-3-2	22.1%	4-3-3	14.3%
Andijon	4-2-3-1	43.3%	4-3-3	23.9%	4-1-4-1	19%
Metallurg Bekobod	3-5-2	37.2%	5-3-2	28.9%	3-4-1-2	21.7%
FK Sogdiana	4-2-3-1	40.7%	4-3-3	19.1%	4-3-3	17.3%
FK Bunyodkor	4-2-3-1	45.3%	4-1-4-1	19.7%	5-3-2	8.9%
AGMK	4-1-4-1	36.9%	4-3-3	27.3%	4-2-3-1	13.9%
FK Surxon	4-2-3-1	47.1%	4-2-4	22.6%	4-1-4-1	9.4%
FK Olimpik	4-3-3	32%	4-2-3-1	29.2%	4-1-4-1	25.6%

Jamoalarning sxemani tanlashidagi omillar murabbiylar yondashuvi, o'yinchi profili, raqibning kuchsiz nuqtalari va umumiy strategik falsafa bilan chambarchas bog'liq. Har bir sxema – bu murabbiy tomonidan muayyan o'yin falsafasi asosida qabul qilingan qaror, uni samarali qo'llash esa harakatlar muvofiqligi, hudud va vaqtni boshqarish, hamda o'yin intellekti bilan belgilanadi.

2024-yilgi mavsumda O'zbekiston klublari o'z taktik tayyorgarlik darajasini oshirganini kuzatish mumkin. 4-2-3-1 sxemasi eng ko'p qo'llanilgan bo'lishiga qaramay, qator jamoalarda raqibga qarab sxemalarni almashtirish amaliyoti ham shakllanmoqda. Bu esa, milliy chempionatdagi o'yin sifati, murabbiylar salohiyati va taktik ko'rish darajasining o'sayotganidan dalolat beradi.

1-rasm.




1-rasm. Superliga jamoalarning eng ko'p foydalanadigan sxemalari

Tadqiqotimiz davomida Neftchi Farg'ona jamoasi 2024-yilgi mavsumda ilmiy yondashildi va o'quv-mashg'ulot va musobaqa faSuperati joriy qilingan modellar taklif etildi. Jamoa o'yin strategiyasida barqaror himoya va raqibning xatolaridan foydalanishga asoslangan modelni qabul qildi. Wyscout ma'lumotlariga ko'ra, jamoaning asosiy taktik sxemasi 5-3-2 bo'lib, umumiy o'yinlarning 54.8% qismida aynan shu joylashuvdan foydalanilgan. Bu ko'rsatkich jamoaning kuchli himoyaviy struktura va qarshi hujum strategiyasiga tayanishini yaqqol ko'rsatadi.

Qanotlar bo'yicha hujumlar taqsimoti va gollar zonasi. Qanotlar bo'yicha hujum taqsimoti. Futbol nazariyasiga ko'ra, hujumning qanday yo'nalishda qurilishi jamoaning texnik-taktik falsafasi va tarkib imkoniyatlariga bevosita bog'liq. "Wyscout" statistikasi asosida ko'rilgan rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Super ligasida jamoalar hujumlarni asosan chap, markaz va o'ng flanglar orqali quyidagi taqsimotda amalga oshirgan: Eng balansli hujum Neftchi (34-32-34), Qizilqum va Surxon jamoalarida kuzatilgan. Chap qanotga tayanadigan jamoalar: Sog'diana (38%), Metallurg (35%), Nasaf (37%). O'ng qanotga og'ishgan jamoalar: AGMK, Dinamo, Andijon, Paxtakor (36%). Markaz orqali hujum qiluvchilar: Bunyodkor (37%), Dinamo (36%). Bu raqamlar jamoalarning qanotdagi pressingga bardosh bera olish qobiliyati va individual qanot futbolchilarining samaradorligiga bog'liq. Masalan, yuqori tezlikda harakatlanuvchi qanot himoyachilar mavjud bo'lsa, qanot orqali hujum ko'payadi. Aksincha, texnik ustunlikka ega "10-raqam" tipidagi yarim himoyachi bo'lsa – markaziy zonadan foydalanish afzal ko'riladi.

2-rasm.




2-rasm. Qanotlar bo'yicha hujumlar taqsimoti va gollar zonasi

Jarima maydonining markaziy hududidan (penalti nuqtasiga yaqin) amalga oshirilgan. Ayrim jamoalarda gollar qanotdan to'p uzatish (cross) natijasida urilgan, bu esa kombinatsion o'yin, qanot pressingidan samarali foydalanish bilan bog'liq. AGMK, Andijon, Nasaf va Paxtakor jamoalarida gollar markaziy zonadan tashqari chekka pozitsiyalardan ham kuzatilgan, bu esa yaxshi joylashuv, ustun pressing va individual harakatlar samarasi bo'lishi mumkin. Ilmiy tahlil nuqtai nazaridan, jamoaning gol urish joylarining zichligi ularning o'yin falsafasi bilan chambarchas bog'liq. Markaziy zonada gollar ko'pligi – bu to'pni ushlab turish, qisqa paslar orqali kombinatsiyalar qurish, hamda raqibning ichki pressing zonalarini yorib o'tish mahoratini bildiradi.

O'zbekiston Super Ligasidagi jamoalarning hujum yo'nalishlari va gollar kiritilgan zonalari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatadiki, jamoalar zamonaviy futbolning uch asosiy tendensiyasiga moslashmoqda: 1.Qanotlar orqali tranzitsion o'yin; 2.Markazda ustunlik yaratish; 3.Joylashuv bo'yicha pressingdan unumli foydalanish. Bu esa jismoniy tayyorgarlik, texnik salohiyat va taktik intizom uyg'unligini talab qiladi.

3-rasm



3-rasm. Gol urilgan zonalarning grafik tahlili

Gol urish zonalari tahlili mashg'ulotlarda pozitsion joylashuv, yakunlovchi harakatlar, va qanotdan uzatmalarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Jamoaviy mashg'ulotlarda "oxirgi uchta pas" (final third combination play) orqali golli vaziyat yaratish ustida ko'proq ishlash tavsiya etiladi. Himoyaviy jamoalar uchun esa markaziy zonadagi zichlik va darvoza oldidagi pozitsion himoyani kuchaytirish zarur.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagilar aniqlandi. Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlashda kompleks nazoratning pedagogik jihatlari tizimi mashg'ulot jarayonining ajralmas pedagogik tarkibiy qismiga aylangan bo'lib, bu nafaqat tayyorgarlik darajasini baholash, balki jamoaviy strategiyani boshqarish, mashg'ulot yuklamasini optimallashtirish va o'yin samaradorligini prognozlash imkonini beradi.

Wyscout tizimi orqali yig'ilgan statistik ko'rsatkichlar – jumladan, to'pga egalik qilish davomiyligi, paslar aniqligi, interception faoliyati, pressingdagi muvaffaqiyat, to'p yo'qotish zonalari – sportchining texnik-taktik holatini real o'yin faoliyati orqali aniqlash va baholashga imkon bergan.

Super Liga jamoalari misolida tahlil qilingan monitoring natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori pog'onadagi jamoalar (Nasaf, Olimpik, Navbahor, Neftchi) texnik va taktik barqarorlikka erishgan, paslar aniqligi va tranzitsion harakatlarda yuqori samaradorlikni namoyon qilgan. Aksincha, pastki o'rindagi jamoalar (Andijon, Qizilqum) to'pni o'z zonasida ko'proq yo'qotgan, pressingga bardosh berish ko'rsatkichlari past bo'lgan.

Jamoalarning eng ko'p foydalanadigan o'yin sxemalari tahlili (1-jadval asosida) ularning taktik yondashuvi, murabbiylik falsafasi va tarkib imkoniyatlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligini ko'rsatdi. Eng keng tarqalgan sxema – 4-2-3-1 – zamonaviy futbol talablariga mos sxema sifatida asosiy variant sifatida tanlangan. Qanotlar orqali hujumlar va gollar zonasi bo'yicha tahlillar jamoalarning texnik salohiyati, pressingga qarshi harakatlari va kombinatsion o'yin qobiliyatlarini ochib berdi. Neftchi, Nasaf va Paxtakor jamoalari balansli yoki chap/o'ng qanotlar orqali samarali hujumlar uyushtirgan, gollarning asosiy qismi esa markaziy zonada to'plangan.

Takliflar: Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlashda kompleks nazorat tizimini raqamli platformalar asosida (Wyscout, InStat, Catapult) muntazam joriy qilish va sportchining har tomonlama rivojlanishini individual monitoring asosida olib borish zarur.

Mashg'ulot jarayonida real o'yin sharoitida monitoring uslubini tizimli ravishda qo'llash: interception, pressing, pas aniqligi va zonal joylashuv asosiy baholash indikatorlari sifatida tanlanishi lozim.

Jamoalar tayyorgarligini baholashda differensial yondashuvdan foydalanish tavsiya etiladi, bunda har bir jamoaning o'yin modeli, texnik-taktik darajasi va zonal faolligiga asoslangan metodik strategiyalar ishlab chiqilishi kerak.

O'zbekiston futboli tizimida kompleks nazorat bo'yicha yagona tahliliy model ishlab chiqilib, barcha professional klublar uchun umumiy monitoring mezonlari asosida baholash tizimi joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Yosh futbolchilarni tayyorlashda kompleks monitoring yondashuvini erta bosqichlardan boshlab qo'llash orqali ularning texnik, jismoniy va taktik salohiyatini muntazam nazorat qilish imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bekov B.V Анализ скоростно-силовой подготовленности футболистов 15-16 лет с использованием инновационных технологий. Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish muammolari va istiqbollari respublika ilmiy-amaliy anjuman 2024 256– 259 bet.
2. Bekov B.V. Inovatsion texnologiyalardan foydalangan holda bir yillik siklda 16-17 yoshdagi futbolchilarning kuch va tezlik-kuch tayyorgarligini rejalashtirish JTSBMQTMOI Nukus filiali xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2024 13-17 bet
3. Jaxbarov A.S Operativ nazorat va mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish hamda tashkil etishda futbol trenerlarining o'rni. Sport ilm-fanining dolzarb muammolari xalqaro ilmiy-nazariy jurnal 2023 №. 3-son 61-66 bet
4. Jaxbarov A.S Yuqori malakali futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini kompleks nazorat qilish. Sport ilm-fanining dolzarb muammolari xalqaro ilmiy-nazariy jurnal 2023 №. 4-son 63-68 bet
5. Jaxbarov A.S. Malakali futbolchilarni kompleks nazorat qilish usullari JTSBMQTMOI Nukus filiali xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2024 141-144 bet
6. Jaxbarov A.S. Futbolchilarning tayyorgarligini kompleks nazorat qilish asoslari. <https://jtsiti.uz>, Respublika anjuman (2024) 414-417 bet
7. Исеев Ш.Т. Анализ эффективности соревновательной деятельности футболистов в зависимости от уровня их физической подготовленности //Респуб. научно-практическая конференция «Тенденции развития современного футбола: проблемы и пути их решения». Ташкент. 2020. С. 6-11.
8. Талицджанов А. И. Комплексный контроль и планирование подготовки футболистов. – 2023.152 bet